



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

### YIRIK SOLIQ TO'LOVCHILARNI HISOBGA OLİSH VA ULARNING BYUDJETGA SOLIQ TO'LASHNISHINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Sh. Jumayev

TDIU Mustaqil tadqiqotchi

#### Annotations

O'zbekiston Respublikasida soliq va boshqa majburiy to'lovlar yig'iluvchanligining zarur darajasini ta'minlash, Yirik soliq to'lovchilar faoliyatini tashkil etish, soliq to'lovchilarning soliq ma'muriyatchiliginini amalga oshirish hamda soliq majburiyatlarini bajarish bo'yicha o'zaro hamkorlik asosida servis-texnik xizmat ko'rsatilishini tubdan takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2018 yil 28 dekabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida "soliqdan qochish emas, uni vaqtida to'lashdan manfaatdor bo'lishi kerak. Yangi tahrirdagi Soliq kodeksida mamlakat taraqqiyotining tayanchi bo'lgan insofli, halol soliq to'lovchilarni rag'batlantirish, yashirin faoliyat yuritadiganlarni esa jazolash ko'zda tutilishi shart. Soliq yukini kamaytirish hisobiga barchaga bir xil adolatli soliq rejimini joriy etish, soliq imtiyozlarini bosqichma-bosqich bekor qilish lozim."<sup>1</sup>" bu boradagi muhim vazifalardan biri sifatida belgilab berilishidir.

**Kalit so'zlar:** byudjet siyosati, byudjet, soliq imtiyozlari, soliq ma'murchiligi, tadbirkorlik sub'yektlari, soliq tushumlari, soliq, soliq stavkasi, preferensiylar, yirik soliq to'lovchilar, davlat soliq inspeksiyasi.

#### Kirish

Yurtimizda iqtisodiyotning mutlaqo yangi tarmoqlariga asos solish, ayniqsa, ularni boshqarish uslublarini zamonaviylashtirish, ya'ni xalqaro biznes yuritish tartib-tamoyillarini joriy etishga alohida e'tibor berilmoqda. Milliy iqtisodiyotimizda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilayotgan korxonalarining rivojlantirish, ularning xorijiy kapital bozoriga chiqishini ta'minlashga erishish va bu borada ilg'or xorij tajribalaridan samarali foydalanishni dolzarb vazifa qilib qo'ymoqda.

<sup>1</sup> 2018 йил 28 декабрдаги Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

Bundan tashqari respublikamizdagi deyarli barcha yirik korxonalar xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar soni kun sayin ko‘paymoqda. Bu iqtisodiyotimiz jadal sur’atlarda rivojlanishi, sanoat salohiyati oshishi, yuqori texnologiyali tarmoqlarning o‘zlashtirilishi, boshqacha aytganda, mamlakatimiz raqobatdoshligi ta’minlanishiga xizmat qiladi.

### Tahlil va natijalar muhokamasi

“Yirik korxona” tushunchasi qonun hujjatlarida keltirilmagan. Amaliyotda kichik tadbirkorlik sub’yekti jumlasiga kirmaydigan korxona yirik korxona hisoblanadi. Quyidagilar kichik tadbirkorlik sub’yektlari hisoblanadi (“Tadbirkorlik faoliyati erkinligi kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunning 5-moddasida belgilangan):

yakka tartibdagи tadbirkorlar;

ishlab chiqarish sohasida band bo‘lgan **xodimlarining o‘rtacha yillik soni** 20 kishidan oshmaydigan, xizmat ko‘rsatish va boshqa noishlab chiqarish tarmoqlarida - 10 kishidan oshmaydigan, ulgurji, chakana savdo va umumiy ovqatlanishda - 5 kishidan oshmaydigan mikrofirmalar;

**xodimlarining o‘rtacha yillik soni** sohaga qarab belgilanadigan kichik korxonalar (Klassifikator, Vazirlar Mahkamasining 2016 yildagi 24 avgustdagи 275-sон qaroriga 1-ilova).

Mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan belgilangan o‘rtacha yillik xodimlar soni oshirilgan taqdirda, ular xodimlar soni oshirilishiga yo‘l qo‘yilgan davrda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar, preferensiyalar, kafolatlar va huquqlardan mahrum bo‘ladilar.

Masalan, kichik tadbirkorlik sub’yektlari tomonidan asosiy fondlar 3 yilda 1 marta qayta baholanadi, boshqa sub’yektlar yil yakuniga bo‘yicha moliyaviy hisobotni (faqat 1 va 2-son shakllar) har yili, qolganlar esa har chorakda (moliyaviy hisobotning barcha shakllari) taqdim etadilar.

Yuridik shaxslarni **yirik soliq to‘lovchilar** toifasiga kiritish mezonlari Nizomda (Adliya vazirligi tomonidan 12.07.2019 yilda 3172-sон bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan) belgilangan va **soliq ma’muriyatçiligini amalga oshirish maqsadlarida qo‘llaniladi**. Yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritilgan soliq to‘lovchilar alohida bo‘linmalarni hisobga olib **markazlashgan holda** soliq hisobotini taqdim etadi va soliqlarni (yig‘imlarni) to‘laydi (Soliq kodeksining 20-moddasi 3-bandi.). Yirik soliq to‘lovchilar, joylashgan yeridan qat’i nazar, soliq



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

hisobotini Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasiga taqdim etadi (Soliq kodeksining 82-moddasi 4-bandı).

### Quyidagilar yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritiladi

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019 yil 12 iyulda ro‘yxatdan o‘tgan 3172-sonli Yuridik shaxslarni yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritishning myezonlarini belgilash to‘g‘risidagi Nizomga asosan, Yuridik shaxslarni yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritishning mezonlari quyidagilar yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritiladi:

- a) aksiz solig‘iga tortiladigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi va aksiz to‘lanadigan xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar;
- b) tijorat banklari, tovar-xom ashyo, fond va valyuta birjalari;
- v) “Navoiy KMK” DK, “Olmaliq KMK” AJ hamda ularning tarkibiga kiruvchi tashkilotlar;
- g) mahsulot taqsimotiga oid bitim bo‘yicha ishlarni bajarishda ishtirok etayotgan tashkilotlar;
- sotishdan olingan sof tushumi o‘tgan kalendar yil yakuni bo‘yicha 100,0 milliard so‘mdan yuqori bo‘lgan yoki ketma-ket keladigan o‘n ikki oylik davr yakuni bo‘yicha ushbu miqdordan oshgan yuridik shaxslar, chet el yuridik shaxsining O‘zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasalari (bo‘linmalari);
- ye) uglevodorod hom ashyosi va mineral resurslarni qazib oluvchi, qayta ishlovchi, yetkazib beruvchi va sotuvchi hamda elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi va yetkazib beruvchi yuridik shaxslar va ularga tovar (ish va xizmat) yetkazib beruvchi chet el yuridik shaxsining O‘zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasalari (bo‘linmalari), bundan avtomobilarga yoqilg‘i quyish shahobchalari mustasno;
- j) O‘zbekiston Respublikasining havo bo‘shilig‘idan yo‘lovchilarni tashish maqsadlarida foydalanuvchi, xalqaro havo aloqalarini amalga oshiruvchi va ularning tarkibiga kiruvchi yuridik shaxslar.
- z) realizasiya qilish joyi O‘zbekiston Respublikasi bo‘lgan elektron shakldagi xizmathlarni realizasiya qilishni amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari.

Nizomning 4-bandiga asosan, yuridik shaxslar o‘tgan kalendar yil yakuni yoki ketma-ket keladigan o‘n ikki oylik davr bo‘yicha soliq organlariga taqdim etgan soliq va moliyaviy hisobotlaridagi ko‘rsatkichlariga asosan aniqlanib, yuridik shaxslar kalendar yil yakuni bilan ko‘rsatilgan mezonlarga javob bermasa, ushbu xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlar navbatdagi uch yil mobaynida yirik soliq to‘lovchilar toifasida qoladi. Bundan tashqari Nizom talablari tatbiq etiladigan yirik soliq



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

to‘lovchilar ro‘yxati har yili keyingi soliq davri boshlangunga qadar bir oydan kechikmay O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

Yirik soliq to‘lovchilar ro‘yxatiga kiritilgan yoki ro‘yxatidan chiqarilgan yuridik shaxslar O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan tegishli qaror qabul qilingan kundan e’tiboran besh kun ichida yozma ravishda, shu jumladan soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetini orqali xabardor qilinadi.

Xorijiy davlatlarning tajribasi o‘rganilganda quydagilar aniqlandi.

Rossiya Federasiyasida yirik soliq to‘lovchilar toifasini belgilash Rossiya Federal xizmatining 2007 yil 16 maydagi № MM-3-06/308-sonli buyrug‘i bilan amalga oshiriladi. Notijorat tashkilotlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar yirik soliq to‘lovchilar takibiga kiritilmaydi.

2020 yilda quyidagi mezonlarga javob beradigan tashkilotlar yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritilishi belgilangan:

federal darajadagi tashkilotlar uchun yillik daromad 35 milliard rubldan, mintaqaviy darajadagi tashkilotlar uchun 10 dan 35 milliard rublgacha.

boshqa yirik soliq to‘lovchilar bilan o‘zaro bog‘liqlik, ya’ni uning iqtisodiy faoliyati natijalariga ta’siri bo‘lsa;

tashkilot soliq monitoringi uchun ariza topshirgan bo‘lsa;

yirik soliq to‘lovchilar qatoriga kirishga qaror Federal soliq xizmati tomonidan qabul qilingan bo‘lsa.

Soliq organlari soliq to‘lovchilarni o‘zları xabardor qiladi Rossiya Federasiyaning Moliya vazirligi RF Soliq kodeksining 83- moddasiga muvofiq yirik soliq to‘lovchilarni hisobga olishn o‘ziga xos hususiyatlarini belgilash vakolatiga ekanligi belgilab qo‘ylgan.

Qirg‘iziston Respublikasida yirik soliq to‘lovchilar hisobini yuritish va toifasini belgilash tartibi

Qirg‘iziston Respublikasining Soliq kodeksining 102-moddasiga asosan yirik soliq to‘lovchilar toifasi Qirg‘iziston Respublikasi Hukumati belgilab bergen mezonlarga muvofiq belgilanishi keltirilgan.

Qirg‘iziston Respublikasi Hukumatining 2011 yil 7 apreldagi “Soliq ma’muriyatichiligi qoidalari va tartibi tasdiqlash to‘g‘rida”gi qaroriga muvofiq “Yirik soliq to‘lovchilarni aniqlash mezonlari va tartibi to‘g‘risda”gi Nizom tasdiqlangan.



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

Quyidagi shartlardan biriga javob bergan soliq to‘lovchilar yirik soliq to‘lovchilar tarkibiga kiritiladi. Jumladan:

- oxirgi 12 oy ichida tanlangan buxgalteriya usuli va belgilangan standartlarga muvofiq tovarlarni, ishlarni, xizmatlarni sotishdan tushadigan mablag‘lar:
  - a) savdo faoliyatidan 50,0 mln.som va undan yuqori tushum bo‘lgan soliq to‘lovchilar
  - b) “a” banddan tashqari soliq to‘lovchilar uchun 20,0 mln.som va undan yuqori tushum bo‘lgan soliq to‘lovchilar.
- oxirgi 12 oyda hioqlangan va to‘langan soliqlar va majburiy to‘lovlari miqdori 2,5 mln.somdan oshgan soliq to‘lovchilar;
- sof aktivlari qiymati (majburiyatlarni olib tashlagan holda) 5,0 mln.somdan oshgan soliq to‘lovchilar kiradi.

Jumladan xorijiy davlatlarning tajribasi o‘rganilganda quydagilar aniqlandi.

Belorussiya Respublikasida yirik soliq to‘lovchilar hisobini yuritish va toifasini belgilash tartibi

Belorussiya Respublikasi Soliq kodeksining 82-moddasiga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar soliq nazoratining o‘ziga xos xususiyatlari keltirib o‘tilgan.

Belorussiya Respublikasi yirik soliq to‘lovchilar toifasiga shartlarga javob beruvchi Belorussiyani tashkilotlari hisobot yilining 1 oktyabrgacha tahlil qilinib, navbatdagi yilning 1 yanvaridan yirik soliq to‘lovchi maqomi beriladi va ikki yil davomida saqlanib qolinadi.

Qozog‘iston Respublikasida yirik soliq to‘lovchilar hisobini yuritish va toifasini belgilash tartibi

Qozog‘iston Respublikasida yirik soliq to‘lovchilarni “yirik soliq to‘lovchilarning monitoringi” shaklida nazorat qiladilar. Qozog‘iston Soliq kodeksini 130-moddasida monitoringa tushadigan yirik soliq to‘lovchilar hisobot yilining 1 oktyabrgacha aniqlanadi hamda 31 dekabrgacha vakolatli organ tomonidan tasdiqlanadi va 2 yil davomida monitoringda bo‘ladi.

### Xulosa va takliflar.

1. Soliq ma’murchiligining samaradorligini oshirish maqsadida va eng kam ish haqining oshib borilishini inobatga olib, inflyasiya darajasi muvozanatni ta’minlash hamda yirik soliq to‘lovchilarni daromadlarning umumiyligi miqdori yuqoriliginini inobatga olib Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan olingan sof tushumi o‘tgan kalendar yil yakuni bo‘yicha 150,0 milliard so‘mdan yuqori miqdorini belgilash kerak.



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

2. Yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar kalendar yil yakuni bilan ko‘rsatilgan mezonlarga javob bermasa, ushbu xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar yirik soliq to‘lovchilar ushbu xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar navbatdagi **bir yil** mobaynida yirik soliq to‘lovchilar toifasida qoldirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

### Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning parlamentga murojaatnomasi. 24. 01.2020 yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlari. [www.soliq.uz](http://www.soliq.uz).